

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO‘LIMI  
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-2/2**

**Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2025**

**Bosh muharrir:***Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i> <i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i> <i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i> <i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i> <i>Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.</i> <i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i> <i>Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots.</i> <i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i> <i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i> <i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i> <i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i> <i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i> <i>Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.</i> <i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i> <i>Ismailov Is‘haqjon Otaboyevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.</i> <i>Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.</i> <i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i> <i>Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc</i> <i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i> <i>Qutliyev Uchqun Otaboyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i> <i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i> <i>Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i> <i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.</i> <i>Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD</i>	<i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i> <i>Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent</i> <i>Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof.</i> <i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i> <i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i> <i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i> <i>Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i> <i>Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i> <i>Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i> <i>Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i> <i>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD</i> <i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i> <i>Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i> <i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i> <i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.</i> <i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i> <i>Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i> <i>Tojibayev Komiljon Sharobidinovich, b.f.d., akad.</i> <i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i> <i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i> <i>Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i> <i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i> <i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i> <i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.</i> <i>O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i> <i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i> <i>Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.</i> <i>Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.</i> <i>Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD</i> <i>Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent</i>
--	--

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2/2 (123), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 218 b. – Bosma nashrning elektron varianti- <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

**MUNDARIJA**  
**IQTISODIYOT FANLARI**

<b>Abdikarimova Z.B.</b> Marketingning asosiy tushunchalari va qishloq xo'jaligi sektoridagi o'rni	5
<b>Aliyev X.R.</b> O'zbekistonda 2024-yil kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ishlar: samaradorlik, muammolar va istiqbollor	7
<b>Axmedova Sh.K.</b> O'zbekiston Respublikasi neft va gaz korxonasi ishlab chiqarish jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish	10
<b>Babajanova D.A.</b> Mintaqaviy klasterlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari	12
<b>Baxshilloev J.Sh.</b> Ziyorat maskanlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli: Xorij tajribasi va imkoniyatlar	16
<b>Baymirzaev D.N., Davlatova Sh.B.</b> O'zbekistonda turizm va mehmondo'stlikni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	19
<b>Chorshanbayev U.</b> Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda onlayn xizmatlarning roli	23
<b>Doliyev Sh.Q.</b> Global energiya iste'moli va samaradorlik tendensiyalarining ekonometrik tahlili	27
<b>Doniyev Sh.O'</b> Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va imkoniyatlari	32
<b>Ermetova I.T.</b> O'zbekistonda elektron hukumat: mavjud imkoniyatlar, mohiyati va uning modellari	35
<b>Ibragimova M.I., Asadova Sh.O., Khamrokulova R.F.</b> The contribution of educational tourism to sustainable rural development in Uzbekistan	38
<b>Ishchanov A.R.</b> Ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishning xorijiy tajribalari va xususiyatlari	41
<b>Karimboyev D.D.</b> The role of passenger transport and its regional economic impact in the sustainable development of transport networks in Khorezm region	50
<b>Kistaubayev S.U.</b> Mamlakatimizda maishiy chiqindilarni bartaraf etishni takomillashtirish masalalari	53
<b>Ne'matov N.I.</b> Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot uchun ahamiyati: servis korxonalarini rivojlantirish misolida	55
<b>Odilov X.M.</b> Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ekologik jihatlari	58
<b>Rustamov A.A.</b> Agroturizmni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari	61
<b>Ruziev Z., Ikromov X.</b> Investment potential of the Republic of Uzbekistan: priorities and ways of its development	64
<b>Ruzmetov Sh.B.</b> Mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sanoat tarmoqlarini o'rni	67
<b>Salayev S.K., Vaisov D.I., San'atbekov A.S.</b> Tibbiy xizmatlar bozorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili	72
<b>Shomirzayeva Q.B.</b> Xususiy telekanallarda marketing strategiyasining ahamiyati	77
<b>Sultanov S.</b> Improving the organizational and economic mechanism for enhancing competitiveness in the transport services market	79
<b>Tuychieva M.G.</b> Tashkilotni boshqarishda motivatsion omillar samaradorligi	84
<b>Vaisov D.I.</b> Tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	87
<b>Xabibulloxoji M.A.</b> Mintaqada ekologik va rekreatsion turizmni rivojlantirish omillari	96
<b>Xodjaraxmanova N.</b> Insurance in the digital age: trends and challenges	100
<b>Xo'jamqulov B.</b> Qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar	105
<b>Xasanova Yu.M.</b> Investitsion muhitni iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	108
<b>Ахмедов Ф.Р.</b> Рақамлаштириш - маҳаллий давлат ҳокимияти органларида қарор қабул қилиш самардорлигини ошириш йўналиши сифатида	112
<b>Ахунова М.Х.</b> Значение рыночного риска для финансовой организации	115
<b>Ибадуллаев Д.И.</b> Худудларни ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини оширишнинг илмий-услубий асослари	118
<b>Кадирова Л.А.</b> Симбиоз математики и экономики в решении перспективных задач по развитию цифровой экосистемы в сфере высшего образования	123

- qishloq joylarda ekologik vaziyatni yaxshilash dasturlarini amalga oshirish.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchlari yoki omillar sifatida quyidagilar hisobga olinishi kerak:

- tashkiliy-xo'jalik mexanizmini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligini rivojlantirishning innovatsion xususiyatini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini malakali kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishga qaratilgan va agrar tarmoqlar o'rtasidagi integratsion aloqalarni o'ziga birlashtiruvchi klasterlar uyushmasining tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasm). Bu esa qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishga qaratilgan klasterlar samaradorligini 3-5 foizga oshirishga imkon beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa shuki, qishloq xo'jaligi murakkab ishlab chiqarish tizimi sifatida barcha ishlab chiqarish omillari mutanosib bo'lsa, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va qishloq xo'jaligi siyosati huquqiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlansa, barqaror ishlaydi. Agar ishlab chiqarish omillari muvozanatlanmagan va resurs salohiyatidan foydalanish darajasi past bo'lsa, tizim beqaror bo'ladi. Natijada, aholisining turmush darajasini oshirish omili sifatida iqtisodiyotning agrar sektorini muvaffaqiyatli rivojlantirish iqtisodiy mexanizmlar, tartibga solish choralari va xalqaro shartnomalarning butun majmuasini qabul qilish va amalga oshirishni talab qiladi. Kooperativ harakatini davlat tomonidan tartibga solish asosida birlashtirilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun zarur moddiy bazani shakllantirish ushbu kompleksning hal qiluvchi kuchlaridan biridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017 yil.
2. Ожегов С.И. Словарь русского языка. / С.И. Ожегов. – М.: Советская энциклопедия, 1964. – 900 стр.
3. Государственная программа развития сельского хозяйства и регулирования рынков сельскохозяйственной продукции, сырья и продовольствия на 2013-2020 гг./ Справочная правовая система «Консультант плюс». / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/70110644>.
4. Никитин А.В. Устойчивое развитие свеклосахарного производства: региональный аспект. / А.В.Никитин, В.М.Белоусов, Н.В.Карамнова. – Мичуринск: Изд-во Мичуринского государственного аграрного университета, 2010 г.
5. О.А.Абдуг'аниев. "O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish." // "UzBridgе" elektron jurnali Toshkent, 2021 . №2, 1-17 betlar.
6. [www.fao.org](http://www.fao.org) - Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xalqaro tashkilotining (FAO) rasmiy sayti.
7. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) – O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining rasmiy sayti.
8. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

UO'K 330.322.2

### INVESTITSION MUHITNI IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

*Yu.M.Xasanova, katta o'qituvchi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari hamda investitsiyalarni kiritishda kengaytirilgan ko'p omilli va tavakkalchilik bilan bog'liq yondashuvlar, korxonalar miqyosida investitsiya faoliyatini baholash ko'rsatkichlari bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsiya afzalliklari, kengaytirilgan ko'p omilli yondashuv, tavakkalchilik, baholash ko'rsatkichlari.

**Аннотация.** В статье освещаются преимущества использования инвестиций в развитие экономики страны, а также расширенный многофакторный и рискориентированный подходы к инвестированию, вопросы, связанные с показателями инвестиционной деятельности в масштабах предприятий.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционные преимущества, расширенный многофакторный подход, риск, показатели оценки.

**Abstract.** *The article highlights the advantages of using investments in the development of the country's economy, as well as issues related to the expanded multifactorial and risky approaches to investing, indicators for assessing investment activity at the scale of enterprises.*

**Keywords:** *investment, investment advantages, extended multi-factor approach, risk, evaluation indicators.*

**Kirish.** Investitsiya – iqtisodiyot drayveri sanaladi. Mamlakatning iqtisodiy siyosati bugungi kunda investitsiyalarga bog‘liq bo‘lib qoldi. 2022-yil davomida O‘zbekistonga jami 240 trln so‘m investitsiyalar jalb qilingan, shulardan 8 mlrd dollari to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib kelgan va eksport miqdori 19 milliard dollarni tashkil etadi. Davlat investitsiya dasturi doirasida 3,7 mlrd dollarlik 158 ta yirik loyihalar ishga tushdi va mamlakatda 25 000 ga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi. Mazkur loyihalarning ko‘pchiligi energetika va tog‘-kon metallurgiya sanoati, qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat va qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohalariga to‘g‘ri keladi.

Endilikda 2023-yilda 30 milliard dollarlik investitsiyalar jalb qilinishi rejalashtirilgan, uning 25 milliard dollari xususiy investitsiyalar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya muhitini rivojlantirish borasida tegishli huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lib, kafolat va imtiyozlarni o‘zida aks ettiruvchi bir qancha me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularda xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi va raqobat muhitiga sharoit hamda zarur investitsiyaviy infratuzilmaning yaratilishini nazarda tutuvchi normalar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, mamlakatimizda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik hamda boy tabiiy mineral resurslarning mavjudligi investitsiya muhitini rivojlantirish uchun imkoniyatlar eshigini keng ochadi. Biroq zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etish uchun bularning o‘zi kifoya qilmaydi. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo hamjamiyati reytinglarida munosib o‘rinlarni egallash uchun yangi zamonaviy g‘oyalarni o‘ylab topish zarurati yuzaga kelmoqda. Xorij investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish — iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, yuqori texnologik raqobatdosh tarmoqlarni yaratish, ilg‘or xorij texnologiyalari, nou-xau va boshqaruv tajribalarini tatbiq etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda aksariyat jabhalarga xorij investitsiyasini kiritish hamda iqtisodiyotning rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda investitsiyalar masalasi iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu sohada iqtisodiy tadqiqotlar olib borgan bir qator xorijiy va mahalliy olimlarni sanab o‘tishimiz mumkin, jumladan, L.D. Gitman, M.D. Djonk, G‘ozibekov D.G‘., Mahmudov N.M., Madjidov Sh.A., Imomov X.X, Yuldashev R.Z., Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V., Shoha‘zamiy Sh.Sh., Rashidov O.Yu., Qurbonov X.A., Qosimov M.S., Samarxo‘jaev B.B., Kenjaev N.I. va boshqa olimlar tadqiqotlarida investitsiyalar mavzusi alohida o‘ringa ega. Iqtisodchi olimlar L.D. Gitman, M.D. Djonklar fikricha, investitsiya – bu shunday vositaki, u orqali pulning qiymatini saqlash yoki ko‘paytirish va ijobiy miqdorda daromad olishi imkonini ta‘minlanadi. Mamlakatimizdagi yyetakchi iqtisodchi olimlar Sh.Sh. Shodmonov va U.V. G‘afurovlar muallifligida yozilgan “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida investitsiyalarga shunday ta‘rif beriladi, investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarishquvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko‘rinishidir. Yuqorida qayd etib o‘tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishning nazariy jihatlarini èritib berilgan bo‘lsada, biroq investitsiya faoliyatiga baho berishda asosiy yondashuvlar – kengaytirilgan ko‘p omilli va tavakkalchilik bilan bog‘liq yondashuvlarga hamda korxonalar miqyosida investitsiya faoliyatini baxolash ko‘rsatkichlariga kam ahamiyat berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez usullaridan, tizimli va majmuaviy yondashuv usullardan foydalanilgan.

**Tahlillar va natijalar.** Ma‘lumki, har qanday mamlakat rivojlangan davlatlar amaliyoti va nazariyasini o‘rganmasdan, jahon hamjamiyatidan ayri holda rivojlanmaydi. Shunday ekan, har bir davlat ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, iqtisodiyotda yuqori ko‘rsatkichlarga erishish, aholining ijtimoiy turmush darajasini oshirish uchun milliy hamda xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro

manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada u yoki bu mamlakatda shakllangan investitsiya muhiti va u orqali investitsion faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Qayerdagi, samarali investitsion faoliyati mavjud bo'lsa, o'sha tomonga iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch - investitsiyalar oqimi tezlashadi.

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi investitsiya faolligi sur'atlariga, bu esa, iqtisodiyot bir tekis o'sib borishi va taraqqiy etishini belgilovchi investitsiya faoliyatiga bog'liq. Investitsiya faoliyati muayyanligini bu boradagi faoliyatning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy hamda boshqa shart-sharoitlarni umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillarning o'zaro bog'liq majmui u yoki bu mamlakat iqtisodiyotidagi hal qiluvchi investitsiya faoliyati hisoblanadi. Demak, investitsiya faoliyati haddan tashqari ko'p o'lchovli, murakkab va serma'no tushunchadir.

Investitsiya salohiyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholanib, o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- hududda ishlab chiqarish omillari va iste'mol talabining mavjudligini;
- xo'jalik faoliyati natijalarini;
- ilm-fan rivojlanishi va yutuqlarining joriy qilinganlik darajasini;
- yetakchi investitsiya institutlarning rivojlanganligini;
- majmualari infratuzilma bilan ta'minlanganligini.

Chet ellarda investitsiya faoliyatiga baho berish uslublari bir-biridan farq qiladi, odatda, bu borada makroiqtisodiy sohaga nisbatan baho ishlatiladi. Masalan, Yaponiyada investitsiya faoliyatining bayoniy tavsifi berilib, miqdoriy baho qo'llanilmaydi. AQSh da u birlashtirilgan to'rtta ko'rsatkich (ishbilarmonlik faolligi, xo'jalik tizimining rivojlanish salohiyati, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi, soliq siyosatining asosiy tashkil etuvchilari) asosida aniqlanadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, investitsiya faoliyatini baholashning ob'ektivlik darajasini oshirish uchun zamonaviy iqtisodiyot fani tomonidan ishlab chiqilgan bir qator muhim uslubiy qoidalarni hisobga olish zarur.

Kam qamrovli yondashuv tarafdorlari investitsiya jozibadorligi uchun asosiy ko'rsatkich sifatida foydalanilayotgan aktivlarning foydalilik darajasini ikki xil variantda hisoblashni qabul qilishadi:

–tovarlar va xizmatlar realizatsiyasidan olingan yalpi foydaning foydalanilayotgan aktivlar umumiy summasiga nisbati bo'yicha;

–sof foydaning foydalanilayotgan aktivlar umumiy summasiga nisbatiga ko'ra.

Ushbu yondashuv sodda va hammabop bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining bosh maqsadi - foyda va qo'yilmalar qaytimini hisobga oladi. Uni turli xo'jalik tizimlaridagi investitsiya faoliyatini tadqiq qilish uchun qo'llash mumkin. Biroq bu yondashuvda manfaatlar muvozanati aks etmagan, investitsiyalar bilan resurs omillari o'rtasidagi ob'ektiv bog'liqlik inkor etiladi, qolaversa, investitsiya faoliyati rivojlanishning innovatsion turi va iqtisodiy barqarorlik bilan bog'lanmagan.

Investitsiya faoliyatini baholashning ko'p omilli usuli uslubiy talablarga ko'proq to'g'ri keladi. Uning afzallik tomonlari: resurs-omillarning o'zaro ta'sirini hisobga olish; baho berishda sub'ektivlikni kamaytiradigan statistik ma'lumotlardan foydalanish; iqtisodiyotning turli darajalariga alohida-alohida yondashuv; investitsiyalarning mumkin bo'lgan barcha manbalarini maksimal darajada samarali qo'llashni ta'minlashga intilishda namoyon bo'ladi.

Tavakkalchilik darajasi bilan bog'liq baholash usuli, avvalo, strategik investorda qiziqish uyg'otadi. U nafaqat investitsiyalash uchun jozibadorlikni aniqlab qolmay, balki, investitsiyalarni qo'yiladigan yangi ob'ektga xos xavf darajasi bilan hozirda mavjud, investor uchun biznes yuritish odatiy bo'lgan tavakkalchilik darajasini qiyoslaydi. Ushbu yondashuvda, shuningdek, investorning ham iqtisodiy, ham siyosiy manfaatlari hisobga olinadi.

Zamonaviy iqtisodiy tafakkurning yyetakchi yo'nalishlaridan bo'lgan institutsionalizm investitsiya faoliyati tahlili uchun yangi imkoniyatlar beradi. Shuni ta'kidlash joizki, investitsiya faoliyati iqtisodiyotning institutsional tizimida alohida tuzilmani tashkil etib, u ishlab chiqarish

kuchlarining rivojlanish va ilmiy-texnikaviy yangilanish jarayonida faol investitsiya faoliyati orqali ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan eng qulay darajada foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish vazifasini bajaradi.

**Xulosa.** Fikrimizcha, investitsion faollikni baholashni boshqaruvning tashkiliy darajasi hamda xo'jalik yuritish ob'ektidan kelib chiqib, tabaqalashgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, korxonada investitsiyalarning mutlaq hajmidan tashqari quyidagilar investitsion faollikning baholovchi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin:

– eski asosiy fondlar va ishlab chiqarish uskunalari hamda ularning yangi investitsion qo'yilmalar ishtirokida yaratilgan yangi turlari o'rtasidagi nisbat. Bu ko'rsatkich korxonaning moddiy-texnika bazasi holati hamda uning fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy yutuqlariga muvofiqligini tavsiflaydi;

– ishlab chiqarish umumiy hajmida korxonada tomonidan yangi investitsion resurslarni kiritish asosida ishlab chiqarilgan yangi mahsulot ulushi. Bu ko'rsatkich investitsion faoliyatni ishlab chiqarish bilan bog'laydi va korxonaning raqobatbardosh mahsulotni yaratish hamda bozorda o'zining barqaror o'rnini shakllantirish sohasidagi ishlarini tavsiflaydi;

– xarajatlarning, shu jumladan korxonada ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga yo'naltirilgan sarflarning daromadlarni «aktiv» va «passiv» qismiga nisbati. Bu ko'rsatkich nafaqat mazkur maqsadga qilingan kapital qo'yilmalarning umumiy miqdorini, balki qo'yilmalarning tarkibiy tuzilishini ham tavsiflaydi;

– investitsiyalarning umumiy hajmida ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasining o'sishi bilan bog'liq sarf-xarajatlarning ulushi. Bu ko'rsatkich korxonaning qo'l mehnatini qisqartirish hamda bir vaqtning o'zida texnika vositalari yordamida bajariluvchi ishlar darajasining o'sishi sohasidagi investitsion faoliyatini tavsiflashi mumkin. SHuningdek, bu ko'rsatkich yakka tartibdagi yoki seriyali ishlab chiqarishning ommaviy ishlab chiqarishga o'tkazilishini tahminlash imkonini beradi;

– investitsiyalarning umumiy hajmida jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning ulushi. Bu ko'rsatkich nafaqat korxonaning hamkorlik aloqalarini, balki uning ishlab chiqarish faoliyatida xorijiy kapitalning ishtirokini ham tavsiflaydi. U shuningdek xususiy va xorijiy investitsion faollikni tizimga solish hamda shu orqali zarur taxminlarni qilish imkonini beradi;

– yangi (qo'shimcha) investitsiya qo'yilmalari hisobiga ishlab chiqarish hajmi, shu jumladan, olingan foyda yoki daromadning qo'shimcha o'sishi. Bu ko'rsatkich investitsiyalashning foydaliligini tavsiflaydi va bevosita investitsiyalarning samaradorligi, ya'ni qo'yilmalarning pirovard natijalari bilan bog'liq.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, investitsion faollik - bu birinchidan, investitsiya faoliyatining tahliliga, ikkinchidan, to'g'ri baholovchi ko'rsatkichlarni tanlashga, uchinchidan, investitsiyaga oid rejalarning ular samaradorligi bilan bog'liqligini ta'minlashga asoslangan holda ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning yaxlit tizimidir. Har qanday holda ham investitsiya faolligi - bu korxonalarning hayotiy faoliyatini yaxshilashga hamda ularning milliy iqtisodiyotning rivojlanishidagi ulushini ko'paytirishga qaratilgan yo'ldir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-4947-sonli farmoni. T.: 7.02.2017-y.

3. Abdullaeva Sevara Khasanovna. Issues of development of textile industry. Collection of materials of the international scientific and practical conference (May 27, 2020). 503-506 p. <https://ru-science.com>

4. Sirojiddinov, I. Q., & Xodjibaeva, I. V. (2021). Factors affecting regional investment potential. Asian journal of multidimensional research, 10(5), 404-409.

5. Zhusupalieva, C.T., Mukhsinova, Sh. O. (2022). The use of digital technologies in the analysis of entrepreneurship development in the Republic of Uzbekistan. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (6-8), 42-57.

6. Ғозибеков, Д.Ф. (2003). Инвестицияларни молиялаштириш масалалари.- Т.:Молия, 332 бет.

7. Куприянова, Т. А. (2020). Инвестиционные инструменты как основа инвестиционной деятельности. Финансы и кредит, 26(1), 213-227.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI**  
**MINTAQAVIY BO‘LIMI**  
**XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**  
**AXBOROTNOMASI**

**№2/2 (123)**  
**2025 y., fevral**

O‘zbekcha matn muharriri:  
Ruscha matn muharriri:  
Inglizcha matn muharriri:  
Musahhih:  
Texnik muharrir:

Ro‘zmetov Dilshod  
Hasanov Shodlik  
Xamrayev Nurbek, Lamers Jon  
O‘rozboyev Abdulla  
Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 06.02.2025  
Bosishga ruxsat etildi: 14.02.2025.  
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 70.  
Hajmi 13.4 b.t. Buyurtma: № 2-T

Xorazm Ma‘mun akademiyasi noshirlik bo‘limi  
220900, Xiva, Markaz-1  
Tel/faks: (0 362) 226-20-28  
E-mail: [mamun-axborotnoma@academy.uz](mailto:mamun-axborotnoma@academy.uz)  
[xma\\_axborotnomasi@mail.ru](mailto:xma_axborotnomasi@mail.ru)



**(+998) 97-458-28-18**